

хилма-хил шаклларда, бир-бири билан узвий алоқада намоён бўлди, ўзига хос миллий қадриятлар тизимини ташкил қилди. Бу тизимда табиий-тарихий бирлиқни таъминловчи қадриятлар – ягона эътиқодлиқ, қариндошлиқ, маданий-маънавий яқинлиқ, ўтмиш ва маънавий мерос, она юрт туйғуси ва бошқалар барқарор ҳисобланади.

Миллий қадриятларимиз таркибидаги баъзи исломий қадриятларимиз кишиларнинг яшаш жойлари, турмуш шароитлари билан боғлиқликда шаклланди.

Адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. - Тошкент: "Ўзбекистон", 2023. 80-б
2. Расулова З.А. Замонавий ўзбекларнинг оила-никоҳ муносабатлари. -Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёт, 2013..383-б.

3. Тожилдинов А. А. Ислон ва миллий қадриятлар. Муслим вэ. ХИА. 2020.

РЕЗЮМЕ. Хозирги замон жамиятда кўп тармоқли ривожланиш асосида қадриятлар тизими ҳақида мвалиф мваммолар сифати ўз фикрини кўрсатади. Мвалиф психолог, философ. Педагоглар учун талабаларга хос бўлган қадриятлар тизимига мос бўлувчи ижтимоий омиллар ўз фикрини намоён этади.

РЕЗЮМЕ. В статье автор представляет одну из проблем системы ценностей на основе междисциплинарного развития в современном обществе. Представлены положительные социальные факторы, способствующие развитию соответствующих систем ценностей в студентах.

SUMMARY. Author presents one of the problems as the value system on the basis of multidisciplinary development of modern society. It is described Mualic psychologist, philosopher. For educators, positive factors corresponding to the system of values inherent in the student are indicative of their opinion.

OILADAGI AJRALISHLAR JAMIYAT MA'NAVYIY HAYOTINING INQIROZI SIFATIDA

F.R.Ro'ziqulov – *psixologiya fanlari nomzodi, professor*

Navoiy viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi

Tayanch so'zlar: oila, nikoh, farzand tarbiyasi, ajralish, yolg'izlik, begonalshuv.

Ключевые слова: семья, брак, воспитание детей, развод, одиночество, отчуждение.

Key words: family, marriage, raising children, divorce, loneliness, alienation.

Oila - jamiyatning eng muhim va mustahkam bo'g'inidir. Insoniyatning sof va pokiza tuyg'ulari, kamolotga yetish bosqichlari oila bag'rida rivojlanadi. Oila inson hayotiga to'kislik bag'ishlaydi va baxt keltiradi. Oilada ma'naviy muhit sog'lom bo'lsa, oila mustahkam bo'ladi. Biroq bugungi kunda jamiyatimizda ko'plab oilalarning ajralish holatlariga bilimsizlik va kasb-hunar ko'nikmalari etishmasligiga guvoh bo'lyapmiz. Buning uchun yurtimizda ilm-fan va zamonaviy kasb - hunar sohalarini yoshlarimizga o'rgatish bo'yicha barcha sharoitlar yaratilmoqda. "...agar biz bo'lg'usi xorazmiylar, farg'oniyalar, beruniylar, buxoriyalar, ulug'beklar, navoiylarni tarbiyalamoqchi ekanmiz, birinchi navbatda, har tomonlama sog'lom, yuksak bilimli va ma'naviyatli onalarimizni tarbiyalashimiz zarur"[1]. Bu esa, jamiyatning ma'naviy barqarorligi bilimli, milliy qadriyatlarni o'z hayotiga jo qilgan muhtaram onalarimiz va xotin-qizlarimizga bog'liq ekanligiga ishoradir.

O'zbekistonda oila, nikoh, er-xotin o'rtasidagi ajrimlar, ijtimoiy-psixologik muammolari borasida bir qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, G.B.Shoumarov [2] "Zamonaviy o'zbek oilasi va uning psixologik xususiyatlari", N.A.Sog'inov[3] "Yosh o'zbek oilalarida yuzaga keladigan er-xotin nizolarining psixologik xususiyatlari", Z.A.Rasulova[4] "Zamonaviy o'zbeklarning oila-nikoh munosabatlari", V.M.Karimova[5] "Yoshlarda o'zbek oilasi to'g'risidagi ijtimoiy tasavvurlar shakllanishi" bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

Xorij olimlaridan Yu.E.Aleshina[6] "Nikoh munosabatlari o'rganishning ijtimoiy psixologik usullari" A.G.Volkov, A.I.Kochetov, L.V.Chuyko kabi tadqiqotchilar oiladagi shaxslararo munosabatlar, oilaviy nizolarni oldini olishda xizmatning zarurligi, psixologik maslahatning asosiy talablarini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar olib borishgan.

Har bir oila - kichik jamiyat. Agar oilaga darz ketsa, bu avvalo o'sha kichik jamiyatning a'zolari taqdiriga, so'ngra mamlakat bug'ini hisoblangan ulkan jamiyatga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatadi. Xususan, bugungi kunda oilaviy ajrimlar jamiyatimizning og'riqli nuqtasiga aylanib bormoqda. Buni oldini olish uchun "Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik", "Oilaviy ajralishlarning

Shu sababli ham mintaqamizda biznes turmuш тарзи-миз, шарт-шароитларимизга мос тарзда шариатнинг ханафийлик йўналиши ривожлани.

Халқимизнинг маънавий мероси, анъаналари, урф-одатлари, адабиёти, санъати билан умуминсоний қадриятларнинг миллий даражада намоён бўлиш шакллари исломий қадриятлар билан боғланиб кетган. Улар миллатимизнинг тарихий ривожланиш жараёнида авлоддан авлодга ўтиб келаётган маданий хусусиятлар ва жиҳатларда ўз аксини топади.

ko'pavishi-jamiyat tanazzuli, millat fojeasi", "Bir nuroniy-o'n nafar yoshga murabbiy" kabi tamovillar asosida tashkil qilingan tadbirlar jamiyat a'zolarining ongi va tafakkurini kengaytirishga qaratilgan. Lekin bu tadbirlarga qaramasdan nega ajralishlar, oiladagi nizoli holatlar soni ko'paymoqda. Oqibatlar o'rganilganda, oilalarning airalib ketishiga moddiy yetishmovchilik, uchinchi shaxs aralashuvi, befarzandlik, jufti haloliga xiyonat, uzoq vaqt birga vashamaslik, o'zaro bir-birini tushunmaslik sabab bo'layotgani ovdinlashadi. Tan olish kerak, oilalarning buzilib ketishiga qaynona kelin munosabatlarining vomonlashuvi, achinarlisi, iahl ustida avtilgan birgina achchiq gap ham sabab bo'lmoqda. Airalish vocasiga kelib qolgan oilalardagi vaziyat o'rganilganda ro'zg'ordagi yetishmovchilikka, erkaklarning oilasidagi o'z o'rni va mavqeini vo'qotishlariga avnan bir-biridan o'zlarini ustun qo'vishiga sabab bo'layotgan ziddiyatli holatlarni vujudga keltiradi. Masalan, Zigmund Frevdning psixoanaliz nazariyasiga ko'ral71. ziddiyatlar "Men" va "O'ziga yuqori baho berish" dan kelib chiqadi.

Ikki-uch bolali ota va onalarning xarakterimiz to'g'ri kelmadi degan vai bahona bilan airashish haqida qaror qabul qilishavotgani, vovaga vetmagan farzandlarning kelgusidagi taqdirini o'vlab ham ko'rishmayotgani, hayotning kichik bir zarbasidan gangib qolib, zimmasidagi vuksak mas'uliyatni unutishavotgani qalblarni larzaga soladi. Mana shunday vaziyatlarda azal-azaldan oila kekxa, mahalla nuronivlari tomonidan uchgunning alanga olmaslik chorolari ko'rilgan. Ya'ni yoshlarga pand nasihatlar, ibratli voqealar so'zlab berilgan. O'vlanmay tashlangan qadamlarning og'ir oqibatlar va asoratlari haqida ogohlantirilgan. Airalishlarning vana bir iiddiy sababi o'tkinchi hoyu-havaslar ortidan qarzgа botib qolish hisoblanadi. Shohona vashash, qimmat mashina minish, dang'illama to'vlaru zivofatlar qilish niyatida bemaqsad, rejasiz qarз va kreditlar olish, so'ngra uni qaytarolmagani uchun yuzaga keladigan noxush vaziyatlar oilaviy ajrimlarning sabablaridan biriga aylanayotgani ham bor gap.

Shu boisdan, oilalar tinchligini asrash, ajrimlarning oldini olish, bunga olib boruvchi sabab va oqibatlarni o'rganish masalasi muhim ahamiyatga ega. Oiladagi ajrim-

larni oldini olishda asosan, yoshlarni oila ilmiga o'rgatish maqsadga muvofiq. Bu o'z navbatida, "Ayollarga ilm berish-jamiyatni ilmi, ma'rifatli va salohiyatli qilish" degan acidani havotga izchil tadbir etishni taqozo etadi [8]. Ularda oila muqaddas qo'rg'on ekanligi to'g'risidagi targ'ibot tushuntirish ishlarini butunlav vani bosqichda, noodativ usul va vondashuvlar asosida olib borish kerak.

Oiladagi ichki qarama-qarshilik uning asabivlashishi, o'z havotiv faolivatidan qoniqmasligi bir qarorga kela olmaslik natijasida paydo bo'ladi. Mazkur ziddiatlar ruhiv asosga ega bo'lib, manfaatlar, qadriyatlar, shaxsning o'ziga past voki juda vuqori baho berishidan kelib chiqadi. Ular konstruktiv va destruktiv xarakterga ega bo'lib, shaxsning ruhiy va jismoniy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Oilaviy nizo tiplari

Konstruktiv (jipslovchi)	Oilada bo'ladigan konstruktiv nizolar, yagona qarorga kelish, nikohdan qoniqishni his etish orqali namoyon bo'ladigan jarayonlarda o'z ifodasini ko'rsatadi. Shuningdek er-xotin "to'qnashuv"laridan norozilik, hissiy begonalashish, bezish holatlarini paydo bo'lish bilan yakunini topadi.
Distruktiv (buzuvchi, vayronkor)	Oilada distruktiv nizolar nikohdan qoniqish hissini kamaytirib, tushunmovchilik, jizzakilik, o'zaro munosabatlardan bezish holatini keltirib chiqaradi. Doimiy takrorlanishi esa, ulardagi qator salbiy hissiyotlarni mustahkamlaydi, bir-biridan begonalashuv holatlarini yuzaga chiqaradi.

Oiladagi ajrimlar natijasida odatda, ko'plab er-xotin va ularning farzandlari hayoti davomida bir qancha muammolarni boshidan kechirishlariga to'g'ri keladi. Ayniqsa, ayol kishi ko'pincha ajrashgandan keyin yolg'iz qoladi. Ba'zilar oiladagi muammolarni takrorlanishidan qo'rqadi va o'z eriga taqdirini topshirib, itoat qilib yashashdan ko'ra yolg'iz yashashni afzal ko'radi. Ko'plab oilalar nikohlari buzilganidan afsuslanishadi, ular ajrimdan keyin sobiq turmush o'rtog'iga hissiy jihatdan bog'lanib qoladilar. Er yoki xotin birinchi jiddiy nizodayog' ajralish huquqidan foydalanishdan qo'rqadi. Bu har bir er-xotinning xulq-atvorida va ularning oilaviy rollariga bo'lgan munosabatida, o'zaro bir-birlarini hamda o'z-o'zini baholashda, oilani rejalashtirishda namoyon bo'ladi. Bugungi kunda ajralishlar to'liq bo'lmagan oilalar sonini ko'payishi natijasida oilaviy qadriyatlar tanazzulga uchrarmoqda. Ajralish ayniqsa, bolalarning ruhiyatiga jiddiy ta'sir qiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar, odatda, ota-onasining ajralishida o'zlarini

aybdor deb his qilishadi. Kattaroq bolalar o'zlarining g'azabini to'g'ridan to'g'ri ifodalaydi. Aksariyat bolalar ajrimdan keyin bir yoki ikki yil ichida tinchlanadi, garchi ularning ba'zilar, hatto, ota-onasi boshqa turmush qursa ham, ular ajrashgandan keyin 5 yil yoki undan ham ko'proq vaqt davomida o'zlarini baxtsiz va yolg'iz his qiladilar. Natijada farzandlar oiladan begonalashadi.

So'ngi yillarda mamlakatimizda bir vaqtning o'zida nikohlarning kamayishi bilan ajralishlar soni oshib bormoqda va qonuniy bo'lmagan tug'ilishlar to'liq bo'lmagan oilalar sonining ko'payishiga olib kelmoqda. Demograflarning hisob-kitoblariga ko'ra, erkaklar va ayollarning qariyb yarmi umr bo'yi nikohni buzadi: o'rtacha har besh ro'yxatdan o'tgan nikohdan ikkitasi buziladi. Ajralishlarning 30% dan ko'prog'i 5 yildan kam bo'lgan yosh oilalarida sodir bo'ladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra ajralish oiladagi otasiz o'sayotgan farzandlarning o'qishiga va tarbiyasiga salbiy ta'sir etishi kuchli bo'ladi. Shu bilan birga ajralish er-xotinning, ota-onalarning ruhiyatiga, salomatligiga, qarindoshlar orasida ruhan jabrlanar ekan.

Xulosa va takliflar.

Oiladagi ajrarishlar, er-xotin o'rtasidagi oilaviy munosabatlar, farzandlarning oiladan begonalashuvi quyidagi ilmiy-nazariy asoslangan xulosa va takliflarni ilgari surishga imkon beradi:

birinchidan, oilaviy munosabatlarda qadriyatlarining o'zgarib borayotganligi, yoshlarning oilaviy hayotga tayyor emasligi, oilaviy nizolarning ko'payotganligi jamiyat ma'naviy taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda;

ikkinchidan, turli avlod vakillari nazaridagi qaynona-kelin munosabatlari, oilaga tashqaridan uchunchi shaxslarning aralashuvi, ishsizlik, er yoki xotinning ishlash uchun boshqa mamlakatlarga ketishi, oilaviy qadriyatlarga hurmatsizlik, yoshlarning mustaqil hayotga tayyor bo'lmagan oila qurishi, uy-joy masalasi o'zbek oilalaridagi ajrimlarning asosiy sabablaridan biri ekanligi empirik tasdiqlandi.

uchinchidan, migratsiya jarayonining tezlashuvi an'anaviy oilani buzilishiga olib kelishi, oila a'zolari o'rtasida mehr-oqibat va o'zaro qo'llab-quvvatlashning yetishmasligi oilaning tanazzulga yuz tutishi sotsiologik so'rovnomalar asosida aniqlandi;

to'rtinchidan, ajrashgan oilalarda axloqiy, psixologik zo'rvonlik (qo'rqitish, haqorat qilish, taqiqlash) eng ko'p uchragan zo'rvonlik turi bo'lib, boshqa zo'rvonlik turlari bilan birgalikda kechganligi hamda ayollarga jismoniy, jinsiy va iqtisodiy zo'rvonlik yuz berganda ham ruhiy azoblanishiga olib kelishi sababli oilalarning buzilishida yetakchi omil ekanligi aniqlandi.

Adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh. "Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari". -T.: "O'zbekiston". 2020. 415-b.
2. Mirziyoyev Sh. "Yangi O'zbekiston strategiyasi". -T.: "O'zbekiston". 2021. 250-b.
3. Шовмаров Ф.Б. Замонавий ўзбек oilasi va uning psixologik xususiyatlari // «Ўзбек oilasining etnopсихологик муаммолари» mavzidagi Respublika ilmiy amaliy anjumani ma'ruzalariining kiskacha ba'ni. - Toshkent: 1993. 109 -111-b.
4. Соғинов Н.А. Ёш ўзбек oilalarida yuzaga kelayotgan er-xotin nizolarining psixologik xususiyatlari. // Ўзбек oilasining etnopсихологик муаммолари. - Респ. ilmiy amaliy anjum. ma'ruz. kisk. ba'ni. - T.: 1993. 49-51-b.
5. Расулова З.А. Замонавий ўзбекларнинг oila-nikoh munosabatlari. Монография. -Ташкент: "Ўзбекистон Миллий энциклопедияси" давлат илмий нашр., 2013. 384-б.
6. Каримова В.М. Ёшларда ўзбек oilasi tўғрисидаги ижтимоий тасаввурлар шаклланиши: Психол. фан. д-ри. ... дис.: 19.00.05 – Фаргона: ФарДУ, 1994. 310-б.
7. Алешина Ю.А. Социально-психологические методы исследования супружеских отношений: спецпрактикум по социальной психологии - М.: Изд-во МГУ. 1987.
8. Лукин Ю.Ф. Конфликтология. управление конфликтами: Management of the conflicts : учебник для вузов / Ю.Ф.Лукин. - М.: Академический Проект Гандеум, 2007. -С. 19.

REZYUME. Maqolada oilalardagi nizolar, nikohga kiruvchi yoshlarning oilaviy hayotga tayyor emasligi, oilaviy qadriyatlar haqida bilimga ega emasligi, keksa avlod vakillari bilan yosh avlod vakillarining oila to'g'risidagi tasavvurlaridagi nomutanosiblik sababli qaynona-kelin munosabatlari, oilaga tashqaridan boshqa shaxslarning aralashuvi natijasida vujudga kelayotgan muammolarning bartaraf qilish mexanizmlariga oid taklif va tavsiyalar keltirilgan.

РЕЗЮМЕ. В статье рассматриваются конфликты в семьях, молодые люди, вступающие в брак, не готовые к семейной жизни, у них нет знаний о семейных ценностях, отношениях свекрови и невестки из-за несоответствия представлений старшего поколения и подрастающему поколению о семье, устранении проблем, возникающих в результате вмешательства других лиц извне семьи, представлении предложения и рекомендации относительно механизмов ведения деятельности.

SUMMARY. The article discusses conflicts in families, young people getting married are not ready for family life, they do not have knowledge about family values, relationships between mother-in-law and daughter-in-law due to the discrepancy between the ideas of the older generation and the younger generation about the family, eliminating problems, arising as a result of the intervention of other persons outside the family, proposals and recommendations are presented regarding mechanisms for conducting activities.